

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**


JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
O‘quv ihlari prorektori
_____ dots.M.N.Pozilov
“ ___ ” _____ 2010 yil

«TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH» kafedrası

**5140900 Kasb ta‘limi va pedagogika, 5630100 QXM bakalavr
yo‘nalishlari uchun «Yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi
asoslari» fanidan bakalavr yo‘nalishlari uchun**

U S L U B I Y Q O ‘ L L A N M A



Jizzax 2010 yil

Ushbu ma'ruzalar matni 2009 yili 13 martda O'z.R. OO'MTV tasdiqlangan va № VM-343-55-21/200 raqami bilan ro'yhatga olingan «Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari» fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy qo'llanma «Transport vositalarini ishlatish» kafedrasining 2010 yil «__»
_____dagi yig'ilishida (bayon №__) tasdiqlangan.

«TVI» kafedra mudiri:

dots. S.A.Usmanov

Uslubiy qo'llanma fakulteti "Imiy-uslubiy kengashi"ning 2010 yil ____ _____dagi
yig'ilishi (bayon № __) tamonidan maqullangan.

"Avtotransport" fakulteti dekani:

dots.K.Jo'raev.

Uslubiy qo'llanma institutning "Imiy-uslubiy kengashi"ning 2010 yil ____ _____dagi
yig'ilishi (bayon № __) tamonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

aspirant. M.S.Mirzabekov

Taqrizchilar:

kat.o'qt. T. Abduazizov

Viloyat IIB YXXB bo'lim
boshlig'i L. Egamberdiev

1- mavzu: Kirish. Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. Yo'l transport hodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari.

Tayanch iboralar. Qoidalar. Asosiy tushunchalar. Atamalar. Haydovchining majburiyatlari. YTH sodir bo'lganda haydovchining vazifalari.

Ma'lumki, har qanday faoliyatni amalga oshirishda, uni to'g'ri tashkil qilishda biror narsaga ya'ni qandaydir qonuniyatlarga asoslanish, maqsadga erishishning yagona to'g'ri yo'li hisoblanadi. Shu o'rinda yo'l harakatini to'g'ri tashkil qilishda insoniyat tarixida juda ko'plab qoidalar ishlab chiqilgan va ular takomillashib borgan. Yo'l harakati qoidalari juda qadimga borib taqaladi. Yo'llarda birinchi transport vositalari - «izvoshlar» paydo bo'lishi bilan, ular uchun harakatlanish qoidalari ishlab chiqilgan. Keyinchalik dastlabki avtomobillar yo'lga chiqqanda, tezliklari juda past bo'lsa ham, ularni oldida bir kishi yugurib yurib yo'ldagi odamlarni ogohlantirib chetga chiqarib yurgan. Keyinchalik shu tartibda har bir davlatda o'zlarining yo'llarida harakatlanish qoidalari ishlab chiqilgan. Davlatlarning rivojlanishi ular orasidagi aloqalarni ham rivojlantirib bordi va dunyoda o'zaro hamkorlik qiladigan davlatlar o'rtasida yo'llarda harakatlanish yagona qoidalarini qo'llashni talab qila boshladi. Shunday qilib, xalqaro kelishuvlarga asos solindi va 1909 yilda birinchi xalqaro konventsiya qabul qilingan bo'lib, unda atigi 4ta yo'l belgi qabul qilingan edi:

Bular: 1) Notekis yul 2) Xavfli burilishlar 3) Temiryo'l kesishmasi 4) Chorraha yo'l belgilaridir.

Keyinchalik xalqaro konventsiya talablari asosida «yo'llada harakatlanish qoidalari» ishlab chiqila boshladi. O'zbekistonda oxirgi yo'l harakati qoidalari 2001 yil mart oyidan kuchga kirgan.

«Yo'l harakati qoidalari»ni boblar bo'yicha o'rganib chiqamiz.

I-bob. Umumiy qoidalar;

Umumiy qoidalar 5 bandni o'z ichiga oladi.

1-band: Respublika yo'llarida harakatlanishning yagona tartiblarini;

2-band: Respublikadagi yo'llarda TVlarning o'ng taraflama harakati;

3-band: Yo'l harakati qatnashchilariga talablar;

4-band: Yo'l harakati qatnashchilarining vazifalari;

5-band: Qoidani yuridik himoyalaydi.

II-bob. Qoidada qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar.

Bu bob 45ta asosiy tushuncha va atamalarni o'z ichiga oladi. Ular yo'l harakati qoidalarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

III-bob. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari.

Haydovchilarni umumiy majburiyatlari 6 bandni o'z ichiga oladi.

1-band: Haydovchining zaruriy xujjatlarini o'z ichiga oladi;

2-band: Haydovchilik guvohnomasi bo'lgan shaxsning vakolatini;

3-band: Mototsikl haydovchining huquqini;

4-band: Xalqaro yo'llarda harakatlanishni;

5-band: Haydovchini majburiyatlarini;

6-band: Haydovchilarga taqiqlangan harakatlarni.

IV-bob. YTH sodir etgan haydovchilarning vazifalari.

Ushbu bob 2 bandni o'z ichiga oladi.

1-1-1-band: YTH sodir bo'lganda qilinishi lozim bo'lgan ishlarni barchasi yoritilgan.

2-band: YTH da zarar kam miqdorda bo'lgandagi holati yoritilgan.



Nazorat savollari:

1. Umumiy qoidalarda qanday bandlar kiritilgan?
2. Qanday asosiy tushunchalar qoidalarda o'rin olgan?
3. Qanday asosiy atamalar qoidalarda o'rin olgan?
4. Haydovchilarning umumiy majburiyatlariga qanday vazifalar kiradi?
5. YTH lar sodir etilganda haydovchilarning vazifalari qanday?

2-mavzu: Yo‘l belgi guruhlari. Ularni yo‘l-ko‘cha sharoitida qo‘llanilishi.

Tayanch iboralar. Yo‘l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo‘shimcha axborot belgilari. Belgilarni o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar.

Yo‘l harakati qoidalarida 7 ta yo‘l belgi guruhlari qo‘llaniladi. Bular:

1. Ogohlantiruvchi belgilar
2. Imtiyoz belgilar
3. Taqiqlovchi belgilar
4. Buyuruvchi belgilar
5. Axborot – ishora belgilar
6. Servis belgilar
7. Qo‘shimcha axborot belgilar

1. Ogohlantiruvchi belgilar. yo‘l harakati qatnashchilariga yo‘ning harakatlanishda vaziyatiga qarab chora ko‘rishni talab qiladigan xavfli qismlarini joylashuvi hamda ularni xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot berish uchun qo‘llaniladi.

Ogohlantiruvchi belgilar 31 ta bo‘lib, ularni asosiy qismining ko‘rinishi uchburchak shaklida, xoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora rangda berilgan bo‘ladi. 1.3.1 va 1.3.2 hamda 1.31.1, 1.31.2, 1.31.3 belgilarini ko‘rinishi boshqa shaklda berilgan. 1.1, 1.2, 1.5-1.30 ogohlantiruvchi belgilar aholi yashaydigan joylarda xavfli joydan 50-100 metr, aholi yashaydigan joylardan tashqarida esa 150-300 metr oldin o‘rnatiladi. Zarurat bo‘lganda bu belgilar 7.1.1 qo‘shimcha belgida ko‘rsatilgan boshqa masofada ham o‘rnatilishi mumkin.

Agar nishablik va balandlik ketma-ket keladigan bo‘lsa, 1.13 va 1.14 belgilari bevosita nishablik va balandlik oldiga o‘rnatilishi mumkin.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida 1.1, 1.2, 1.9, 1.10, 1.21 va 1.23 belgilari takrorlanadi. Ikkinchi belgi yo‘ning xavfli qismi boshlanishiga kamida 50m qolganda o‘rnatiladi.

Agar qatnov qismida qisqa muddatli yo‘l ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, 1.23 belgisini ish bajarayotgan joyga 10-15 metr masofa yetmasdan (7.11 qo‘shimcha belgisi) o‘rnatish mumkin.

1.3.1 va 1.3.2 belgilari bevosita temir yo‘l kesishmasining oldiga o‘rnatiladi.

2. Imtiyoz belgilari – chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek, yo‘ning tor qismida yo‘l harakati qatnashchilarining harakatlanishi navbatini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Imtiyoz belgilari 7 ta bo‘lib, ular ko‘rinishi jihatidan har xil, chunki bu belgi guruhi boshqa yo‘l belgi guruhlaridan tashkil topgan. Shuning uchun ham uchburchak, to‘rtburchak va doira shaklidagi ko‘rinishga ega. Bu belgilar bevosita kesishma, tutashma va yo‘ning tor qismlariga o‘rnatiladi.

3. Taqiqlovchi belgilar – yo‘l harakatiga ma‘lum cheklanishlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo‘llaniladi.

Taqiqlovchi belgilar 31 ta bo‘lib, ularning asosiy qismining ko‘rinishi doira shaklida bo‘lib, hoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora va qizil ranglarda berilgan bo‘ladi.

3.1-3.3, 3.18.1, 3.18.2, 3.19, 3.27 belgilarining belgilangan yo‘nalishli transport vositalariga, 3.2-3.8 belgilari ta’sir oralig‘ida yashovchi yoki ishlovchi fuqarolarga tegishli yohud ularga va korxonalariga xizmat qiluvchi transport vositalariga dahli yo‘q. Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak. Ushbu qoidalarining 28.3 bandiga binoan «Nogiron» taniqli belgisi bilan belgilangan avtomobillar va kajavali mototsikllarni boshqarayotgan nogiron haydovchilar 3.2, 3.3 va 3.28

belgilari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. 7.18 qo'shimcha axborot belgisi bo'lganda 3.27 belgining ta'siri oraligida to'xtashga ruxsat etiladi.

3.28-3.30-belgilari taksometri ishlab turgan taksilarga dahli yo'q.3.18.1 va 3.18.2 belgilari qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldiga o'rnatilsa, shu kesishmaga tadbiq etiladi. 3.16, 3.20, 3.22, 3.24, 3.26-3.30 belgilarining ta'siri belgi o'rnatilgan joydan keyingi eng yaqin chorrahagacha, chorrahasi bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda aholi yashaydigan xududning oxirigacha, yo'lga yondosh xududlardan dala va o'rmonlarning yo'l bilan tutashgan hamda ikkinchi darajali yo'llardan chiqish joylarida, ularning oldida tegishli belgilar o'rnatilmagan bo'lsa, bu belgining ta'siri bo'lmaydi.

Aholi yashaydigan joylarga yetmay o'rnatilgan 3.24 belgining ta'siri 5.22 belgisigacha kuchini saqlaydi.

Belgilarning ta'sir doirasi:


3.16 va 3.26 belgilari 7.2.1 qo'shimcha belgisi orqali 3.20, 3.22, 3.24 belgilari 3.21, 3.23, 3.25 va 7.2.1 qo'shimcha belgi orqali.



3.27-3.30 belgilarining amal qilish oraligi 3.27-3.30 belgilari 7.2.3 qo'shimcha belgisi bilan birga takror o'rnatiladi yoki 7.2.2 bilan qo'llaniladi.

3.27 belgisi 1.4 yotiq chizig'i bilan birgalikda, 3.28 belgisi esa 1.10 yotiq chizigi bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin, bunda belgilarning ta'sir doirasi chiziqlar uzunligi bilan aniqlanadi.

3.10, 3.27-3.30 belgilari yo'lning qaysi tomoniga o'rnatilgan bo'lsa, ularga faqat o'sha tomonda amal qilinadi.







Nazorat savollari:

1. Yo'l belgilari nechta guruhga bo'linadi?
2. Ogohlantiruvchi belgilarga misollar keltiring.
3. Imtiyoz belgilariga misollar keltiring.
4. Taqiqlovchi belgilarga misollar keltiring.